



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Turaqulova Adiba Oybek qizi

*2006-yil 9-aprelda Samarqand viloyati , Pastdarg'om tumanida tug'ilgan.
Hozirda Toshkent davlat universitetining 1-kurs talabasi.*

Bobojonim

Bobojonimni qumsayman har kun
Yurakda izlari, qalbdan so'zlari
Dono so'zingizni eslayman doim
Jannatlarda ko'ray iloyim

Sizning kabi yozsam satrlar
Sizni yod etib yozaman she'rlar
Sizni yo'lingizda bo'larman davom
Yurakdan qalbdan sizni his etib

Bobo,sizga tilayman
Jannatning yorug' nurin
Yurakda bir niyat so'zim
Har bir onimda sizni eslayman

YAQINLARIM

Yuragimda olovdek yonar sog'inchim
Yaqinlarim,sizlarsiz dunyo qorong'u
Har bir nafasda sizni his etib
Mehmon bo'lib keling ishlardan kechib

Sizlarning tabassumingiz quyosh nuriday
Har bir uchrashuvimiz bahor guliday
Sizlar bilan o'tgan har bir daqiqa
Hayotda eng go'zal lahza aslida

Sog'inchim so'zlar bilan ifodalay olmay
Faqat sizlar bilan bo'lsam keng dunyo olam
Mehmon bo'lib kelsangiz,yo'q aslo nalam
Yaqinlarim boriga shukur!





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ammajonlarim

Ammajonim-bahorning guli
Yuzida quyoshning nuri
Har qadamida gullar ochilar
Mehringiz qaynoq qalbingiz to'la muhabbat

Ammajonim- tog'lar kabi mustahkam
Hayot yo'limda doimo do'stim
Har bir yutug'imda qo'llab-quvvatlar
Hayotimning yorqin yo'lduzi do'stim

Dadam derlar: Jonajon singlim
Ko'nglimning yarmi uyimning turi
Birgalikda o'tgan har kun g'animat
Mehrini his etarman masofadan ham

Kattasi Hulkar, kichigi Hurriyat
Ikkisi ham yulduzdek porlar
Bizni doim to'g'ri yo'lga chorlar
Sizlardan doim minnatdor qalbim